

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA AYOLLAR MAVZUSIDAGI XALQ MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Tadjiyeva Umida

“Al Buxari university” o'qituvchisi

Email:umida.fayziyeva@mail.ru

Tel:(93)533-98-56

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada arab va o'zbek folkloriga tegishli bo'lgan xalq maqollarinin ayollarga bag'ishlangan qismi yoritib o'tilgan. Ma'lumki, ayollar mavzusi har bir xalqda keng muhokamaga sabab bo'ladigan va chuqur o'rganiladigan mavzudir. Maqolada ayollarga bag'ishlangan arab va o'zbek xalq maqollarining mushtarak hamda farqli jihatlari qiyosiy o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR. Islom dini, ko'pxotinlilik, hayo, nozik qalb, intellektual qobiliyat, diniy e'tiqod.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ПОСЛОВ О ЖЕНЩИНАХ В АРАБСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается женский раздел арабского и узбекского фольклора. Общеизвестно, что женская тема широко обсуждается и глубоко изучается в каждом народе. В статье сравниваются сходства и различия между арабскими и узбекскими народными пословицами о женщинах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Ислам, полигамия, скромность, нежное сердце, интеллектуальные способности, религиозные убеждения.

NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF FOLK PROVERBS ON WOMEN IN ARABIC AND UZBEK LANGUAGES

ANNOTATION. This article covers the women's section of Arabic and Uzbek folklore. It is well known that the topic of women is a topic that is widely discussed and studied in depth in every nation. The article compares the similarities and differences between Arabic and Uzbek folk proverbs about women.

KEYWORDS. Islam, polygamy, modesty, tender heart, intellectual ability, religious beliefs.

Ayollar mavzusi, ularning oila va jamiyatdagi o'rni har bir xalqning bahs-munozara uchun asosiy mavzusi bo'lib kelgan. Necha asrlardan beri olimu-fuzalolar ayollarning erkaklar bilan huquqlari qandayligi, ularning jamiyatda qanday mavqega ega ekanliklari haqida bosh qotiradilar. Asida ayol kishi nozik xilqat etib yaratilgan. Shoirlar she'rlarida, adiblar asarlarida ayolni guldek nozik, “ bir qultum suv bilan yutib yuboradigan” darajada navnihol etib tasvirlanadi. Lekin, haqiqatda ayol kishi hayotning barcha qiyinchiliklarini o'zini nozik yelkasiga orta oladigan kuchli, sinovlarga nisbatan chidamli qilib yaratilgan.

Sharq xalqlari hayoti, turmush tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatda ham oilada ham erkak kishining ustunligiga urg'u beriladi. Barcha masalalarda ayollarning erkaklari bo'ysunishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu narsa sharq maqollari, matallari yohud xikmatli so'zlarida o'z ifodasini topgan.” Erkak

bosh bo'lsa, ayol bo'yin", " Erkak shoh bo'lsa, ayol vazirdir" kabi maqollar shular jumlasidandir. Shuningdek, arab xalq maqollarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ayol kishining aqliy qobiliyati tanqid qilinganiga ham guvoh bo'lamiz. Bunday maqollar albatta har bir arab davlatida yashovchi xalqning mentalitetidan kelib chiqadi. Quyida ayollarning mental va intellektual qobiliyatlati to'g'risida salbiy fikr bildirilgan maqollar keltiriladi. Iroq xalq maqollarida ayollar haqida shunday deyiladi:

الشعر تجعيد في المرأة دماغ

Ayolning miyyasi uning sochidagi jingalaklaridadir.

O'zbek xalq maqollarida ham ayollar to'g'risida "Sochi uzun-aqli kalta", "Ayoling yaxshi bo'lsa suf-suf, yomon bo'lsa bo'larsan faylasuf", kabi xazilomuz o'xshatmalar ham bor.

Yana bir Iroq maqolida:

العكس افعل و زوجتك اسأل

Ayolingdan maslahat so'ra, lekin aytganini aksini qilgin.

Ushbu maqolda ayol kishining maslahati ishinchi bo'lmasligiga ishora qilinadi.

Yana bir maqolda ayol kishining aqliy qobiliyati uning hozirjavob bo'lishiga yetmasligi, biror bir ishning yechimini tez o'ylay olmasligi ta'kidlanadi. O'zbek xalqida ham ayol kishiga salbiy ma'noda "tovuqmiyya" deya ta'rif beriladi. Shuningdek "Erkak kishi aqli bilan-ayol kishi esa yuragi bilan o'ylaydi" kabi maqollar ham mavjud. Arab xalqi esa quyidagi ta'rifni beradi:

الجواب يعطي الرجل تسأل المرأة

Ayol kishi savol beradi, erkak kishi esa unga javob beradi.

Ayollar haqidagi o'zbek xalq maqollarini ko'rib chiqar ekanmiz quyida ba'zi bir salbiy jihatlarining yig'indisidan tashkil topgan maqollar turkumini keltiramiz:

Sergaplik:

Elakka borgan ayolning ellik og'iz gapi bor. Qizil tilim tiyolmadim, qizimnikiga borolmadim.

Makri:

Bir xo'tinning hiylasi qirq tuyaga yuk bo'ladi.

Aqliy qobiliyatining pastligi:

Xayt desa it yugurar-itdan oldin -qiz.

Xavfliligi:

Bolaga tegma balosi chiqadi- xotinga tegma - qasosi chiqadi.

Turmush o'rtog'ining qarindoshlari bilan munosabati:

Kelsa xotin urug'i-topiladi yo'rig'i, kelsa urning urug'i-bo'lar yurak burug'i.

Yana bir turkum arab maqollarida ayolning o'ziga xosligi, uning oiladagi o'rni haqida so'z boradi. Ushbu kontseptsiya ayollarni erkakning shahsiy mulki emas, balki erga sherik sifatida qabul qilish asoslarini qo'llab-quvvatlaydi. Bir arabcha maqol shu mazmunda shunday deydi:

المنزل إدارة تستطيع لا المنفردة والمرأة النار تشعل أن يمكن لا الخشب من واحدة قطعة

Yog'ochning bir qismi olov chiqara olmaydi va yolg'iz ayol uyni boshqarolmaydi". Ushbu maqol erkakning yana bir ayolni ikkinchi xotin sifatida qabul qilish imkoniyatini anglatadi. Ushbu maqol Islom bilan ham bog'liq bo'lib, bu erkaklarning bir necha ayolni o'z nikohiga olishlariga imkon beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, ikkinchi nikoh majburiyat emas, qulaylik uchun bo'lgan nikohidir. Ko'pxotinlilik haqidagi hikmatlar, uyushganlikdan tashqari, ayollarning mulk ekanligini anglatadi va patriarxal fikrni aks ettiradi Ushbu maqollarda ayollarning o'tin yoki guruch singari almashtirilishi mumkin bo'lgan narsa ekanligi ma'nosi anglashilinadi. Bu ayollarning ularga egalik qiladigan erkaklardan past ekanliklarining patriarxal ko'rsatkichidir.

Lekin ushbu mavzudagi o'zbek xalq maqollariga nazar tashlar ekanmiz, ikki nikohlilik qoralanganligini ko'rishimiz mumkin:

Kundoshlikka kun tug'mas, Tug'sa ham butun tug'mas.

Kundoshlik uyda kunda janjal.

Kundoshning kuli ham kundosh.

Er-xotinlik munosabatida ayollarning o'rni to'g'risidagi arab xalq maqollarini tahlil etar ekanmiz, quyida ba'zi bir turkum maqollarini keltirib o'tamiz:

هم لأنهم ، مطيعة امرأة وتزوج الحركة سريع حيوان على حافظ

Hayvonlardan tez yuguradiganini saqla, ayolni esa itoatkoriga uylan, chunki bu ikkisi hayotning xuzuridir.

فاضلة امرأة عليها الصبر كان

ومنزلها الزوج ازدهر

Fozila ayol eriga nisbatan sabrli bo'lsa, xonadoni gullab-yashnaydi.

Arab madaniyatida xachir, eshak, tuya kabi hayvonlar insonlar uchun ham, buyumlar uchun ham transport vazifasini bajaradi. Ushbu hayvonlarning vazifalari, ularning qancha va qanday yukni tashishi, qancha masofani bosib o'tishi ushbu hayvonlar egalari tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu maqoldan kelib chiqadiki, tez yuguruvchi hayvonlarning xizmatlari ham, ayol kishining xizmati ham tengdir. Arab xalqida esa ayol kishiga biron ma'lum vazifani bajaruvchi insonga nisbatan qarashlar mavjudligi ko'rinadi. Uy yumushlari ham to'liq ayol kishining bo'ynida ekanligi ta'kidlanib o'tiladi. Shuning uchun ham erkakni itoatli vasabrli ayolga uylanishi kerakligi aytib o'tiladi.

Shu o'rinda o'zbek xalq maqollarida ham "Yuk ko'targa yuzaga chiqadi", "Erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin", "Sabr bilan yetarsan murodga" kabi maqollarni ham keltirib otish joiz.

Arab xalq maqollarida ayol kishi faqat salbiy obrazda gavdalantirilmaydi, balki uning ijobiy tomonlrini ham e'tirof etadigan maqollar mavjud.

Yuqoridagi maqollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, arab xalqida, barcha Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlar kabi ayollardagi ibo-hayo, iffat kabi xislatlar ularning chiroylaridan ko'ra qadrlanadi. Ayol kishi nafaqat xusni, balki xayoi-ibosi bilan go'zal bolishi uqtiriladi. Shuningdek, ayol kishining aqlli bo'lishi kerakligi, aqlli ayol xazina tengligi ham ta'kidlanadi. Ayol kishining xusni xaqida gap ketarkan, albatta, muqaddas kitob Qur'ni Karimga ham murojat qilinadi. Chunki, Qur'oni Karim arab tilida nozil bo'lganligi sababli arab xalqining milliy-madaniy me'rosiga aylanganidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
2. Максудов У. Арабские пословицы и поговорки: возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературе. Вестник Санкт-Петербургского Университета. 2012.
3. M.Sodiqova "Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqollar lug'ati" to'plami .
4. Azhar al-Zubeydiy Patriarchal Concepts of Woman in English, and Arabic Proverbs.Al-Mustansiriyya university.
5. Mahmudova N. Comparative analysis of the concept woman in english and uzbek proverbs. V Международная научная конференция «современная филология» Самара-2017.
6. Henry M. Karakacha, Omboga Zaja, Rayya Timammy, Kineene Wamutiso University of Nairobi. Objectification of women in kiswahili and arabic proverbs. The University of Nairobi Journal of Language and Linguistics, Vol. 8 (2020).